

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Valijonova Shaxzoda

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH 6-9

Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK
MOSLASHTIRISH ALGORITMI 10-15

Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI 16-19

IQTISODIYOT FANLARI

G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 20-24

FALSAFA FANLARI

Парниева Айгуль

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ 25-30

FILOLOGIYA FANLARI

Tursunova Farangiz

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI
JIHATLARI 31-33

Jo'rayeva Nozimaxon

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK 34-38

Inatova Jasmina

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI 39-42

Mavjudboyeva Mardona

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI 43-47

Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY
KONTEKSTDA 48-50

Xamidova Go'zal

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI 51-53

Adasheva Durdona

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI	72-77
YURIDIK FANLAR	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI	91-93
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING	144-149

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK

Jo'rayeva Nozimaxon Halimjon qizi

University of Business and Science

Lingvistika (o'zbek tili yo'nalishi) 1- kurs magistranti

E-mail: nozimakhonjurayeva9702@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-4613-732X>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi olmoshlarning o'ziga xos semantik xususiyati — ko'p ma'nolilik — pragmasemantik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Olmosh boshqa so'z turkumlaridan farqli ravishda o'z ma'nosini olganda mustaqil tasavvurga egalik qilmaydi — uning ma'nosi faqat kontekst, nutq vaziyati va muloqot ishtirokchilari orqali aniqlanadi. «Men» olmoshining shaxs, ob'ekt, muallif-ovoz, mag'rur va kamtarin ma'nolarda qo'llanishi; «u» olmoshining aniq shaxs, mavhum tushuncha, bilinmagan narsa va nafrat ifodalash ma'nolari; ko'rsatish olmoshlarining zamon, makso va sifat ifodalashi kabi hodisalar tahlil etiladi. Maqola olmosh polisemiyasini kognitiv va pragmatik nuqtayi nazardan ko'rib chiqadigan yangi yondashuvni taklif etadi.

Kalit so'zlar. olmosh, ko'p ma'nolilik, polisemiya, kontekstual ma'no, kishilik olmoshi, ko'rsatish olmoshi, pragmatika, semantik o'zgaruvchanlik, o'zbek tili, nutq vaziyati.

MULTIMEDIACY OF PRONOUNS IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE: SEMANTIC BROADNESS AND CONTEXTUAL VARIABILITY

Juraeva Nozimakhon Halimjon qizi

University of Business and Science

1st year master's student in Linguistics (specialization in Uzbek language)

Annotation. This article analyzes the specific semantic feature of pronouns in the Uzbek language — polysemy — based on a pragmasemantic approach. Unlike other parts of speech, pronouns do not have an independent representation when acquiring their meaning — their meaning is determined only through context, speech situation, and communication participants. The use of the pronoun 'men' in the meanings of person, object, author-voice, pride and humility; the meanings of 'u' in the senses of specific person, abstract concept, unknown object and expressing contempt; as well as the expression of time, space and quality by demonstrative pronouns are analyzed.

Keywords: pronoun, polysemy, multiple meanings, contextual meaning, personal pronoun, demonstrative pronoun, pragmatics, semantic variability, Uzbek language, speech situation.

DOI: <https://doi.org/10.47390/yl-dif-y2026v2i8/n07>

Kirish.

Tilshunoslikning so'z turkumlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'limlarida olmosh an'anaviy ravishda «boshqa so'z turkumlari o'rnida qo'llaniladigan, ularning ma'nosini ko'rsatadigan so'zlar» deb ta'riflanadi. Bu ta'rif asosan to'g'ri, biroq u olmoshning eng muhim semantik xususiyatini — ko'p ma'nolilikni — to'liq ochib bermaydi. Oddiy leksemalarning ko'p ma'noliligi boshqa so'z ma'nosini o'rgatishda keng o'rganilgan bo'lsa, olmosh polisemiyasi o'ziga xos tabiati tufayli yetarlicha tadqiq etilmagan. Olmosh tilshunoslikda «ichi bo'sh so'zlar» sifatida ham ta'riflanadi: ya'ni u muayyan predmet, belgi yoki miqdorni atamaydi — uning ma'nosi faqat nutq vaziyatida to'liq ochiladi [1]. Mana shu nutq sharoitiga bog'liqlik — olmoshning semantik o'zgaruvchanligi — uni tilshunoslikning polisemiya bo'limiga to'liq olib

kiradi. Ushbu maqolaning maqsadi — o'zbek tilidagi turli olmosh guruhlarining ko'p ma'noliligini kontekst va nutq vaziyati asosida pragmasemantik tahlil qilish hamda ularning ma'no kengligini ilmiy asosda tasniflashdir.

Adabiyotlar tahlili.

O'zbek olmoshlarini o'rganishning asosiy yo'nalishlari uch toifaga bo'linadi: grammatik tasnif, pragmasemantik tahlil va qiyosiy-tipologik tadqiqot. Grammatik tasnif yo'nalishida Sayfullayeva R. va boshqalarning «Hozirgi o'zbek tili» qo'llanmasi [2], Jamolxonov H. ning «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligi [3] olmoshlarni kishilik, o'zlik, ko'rsatish, so'roq, belgilash, gumon va bo'lishsizlik olmoshlariga ajratib, ularning morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganadi. Bu asarlar olmosh polisemiyasini bevosita ko'rib chiqmasa-da, har bir guruhning ma'no doirasini aniqlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda leksik birliklarning ko'p qatlamli semantik tabiati, polisemiya va kontekstual ma'no hosil bo'lishi jarayonlari ko'rib chiqiladi. Olmosh polisemiyasini aynan kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish — bu maqolaning o'ziga xos yangilik jabhasi sifatida belgilanadi.

Tadqiqot metodlari.

Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy metod (olmosh ma'nolarini nutq namunalari asosida tavsiflash), komponent tahlil metodi (olmosh semalarini asosiy va kontekstual ma'nolarga ajratish), kontekstual tahlil metodi (bir olmoshning turli nutq vaziyatlarida turli ma'no kasb etishini kuzatish) va qiyosiy metod (turli olmosh guruhlarining polisemiya xususiyatlarini solishtirish) qo'llanildi. Misollar badiiy matnlar — Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon asarlari, Alisher Navoiy she'riyati — hamda kundalik nutq namunalaridan to'plandi.

Natijalar va muhokama.

Polisemiya — bitta leksemaning bir-biri bilan semantik jihatdan bog'liq bo'lgan ikki va undan ortiq ma'no kasb etish hodisasi. Ko'p ma'nolilik leksemalarning «ma'no taraqqiyoti» natijasida yuzaga keladi: asosiy (bosh) ma'nodan ikkilamchi, ko'chma yoki kontekstual ma'nolar hosil bo'ladi. Olmoshlarda bu jarayon boshqacharoq: olmoshning o'zi «bo'sh ma'no qobiqi» bo'lganligi bois uning ko'p ma'noliligi kontekst bilan bevosita bog'liq. Apresyan Y.D. qayd etganidek, polisemantik so'zlarning ma'nolari o'zaro semantik munosabat orqali bog'langan; olmoshlarda bu munosabat nutq vaziyatining o'zgarishi bilan yuzaga keladi.[6]

«Men» olmoshi o'zbek tilida birinchi shaxs birlik shaklida, ya'ni so'zlovchi o'zini atash uchun qo'llanadi. Biroq kontekst uning ma'nosini sezilarli darajada kengaytiradi.

Birinchi ma'no — aniq shaxs, so'zlovchining o'zi:

Men bugun ishga bordim.

Ikkinchi ma'no — muallif ovozi yoki ijodkor «men»i. Badiiy asarda so'zlovchi o'zidan yuqoriroq bir ong yoki dunyoqarashni ifodalaydi:

Men aytmagan so'zni aytajak kimdir. (Abdulla Oripov)

Uchinchi ma'no — mag'rurlik, o'zini oshirib ko'rsatish:

Men bu ishni qilaman, sen qilolmayсан.

To'rtinchi ma'no — kamtarlik yoki inkor ma'nosi. Eski o'zbek tilida «men» o'rnida «kamina, faqir, ojiz bandingiz» kabi so'zlar qo'llangan [3]; bu yerda «men» ning kamtarlik paradoksi aniq ko'rinadi — ingliz tilidagi «I» ning katta harf bilan yozilishi bilan taqqoslaganda, o'zbek tilida «men» so'zi o'zini kichraytirish uchun ham ishlatilgan. Beshinchi ma'no — ob'ektivlashuv, ya'ni «men» olmoshi predmet sifatida qaraladigan:

Mening ichimda yana bir «men» bor.

Bu so'nggi qo'llanish faylasuflik va psixologik kontekstlarda keng uchraydi va olmoshning leksemaga aylanish jarayonini ko'rsatadi. Sayfullayeva R. va boshqalar [2] ta'kidlaganidek, olmoshlar asosida ot yasalishi ham mumkin: «o'zlik», «o'zicha» kabi so'zlar olmosh asosiga qo'shimcha qo'shilishi orqali hosil bo'lgan.

«U» va uchinchi shaxs olmoshlarining semantik kengligi. «U» olmoshi o'zbek tilida eng ko'p ma'nolilikka ega olmoshlardan biri hisoblanadi. Grammatik jihatdan u III shaxs birlikni — muloqotda ishtirok etmayotgan shaxsni — ifodalaydi. Biroq kontekst bu olmoshning ma'nosini tubdan o'zgartirishi mumkin.

Aniq shaxs ma'nosi — nutqda oldin tilga olingan bir odamga ishora:

Ali keldi. U o'tirdi.

Mavhum tushuncha yoki personifikatsiya ma'nosi — hayot, ölim, baxt, vaqt kabi tushunchalar «u» orqali shaxslantirilib ifodalanadigan badiiy uslub:

U yana eshikni qoqmadi — baxt hech qachon ikki marta qoqmaydi.

Bilinmagan yoki noaniq ob'ekt — «nima ekan u?» ma'nosida:

Ko'prikdan bir narsa o'tdi. U nima edi, bilmadim.

Mensimaslik yoki nafrat ma'nosi — «u» olmoshining istehzo ohangida ishlatilishi:

U menga nima ham deya oladi?

Cho'lponning «Mehrobdan Chayon» romani misolida ko'rsatilganidek, bir xil olmoshning badiiy matnda ko'p xil stilistik vazifani bajarishi — bu olmosh polisemiyasining amaliy dalili. Matnda «u» olmoshi goh ishq ob'ektini, goh tajovuzkor kuchni, goh mavhum taqdir tushunchasini ifodalaydi — bularning barchasi faqat kontekst orqali farqlanadi.

«Bu», «shu», «o'sha», «mana bu», «ana u» kabi ko'rsatish olmoshlari semantik jihatdan eng qiziqarli va rang-barang guruhlardan biridir. Ular asosan fazoviy ishora — yaqin va uzoq ob'ektga ko'rsatish — vazifasini bajaradi, biroq kontekstda ularning ma'no doirasi juda keng. «Bu» olmoshining kontekstual ma'nolari: makonga ishora («bu yerda qol»), zamonga ishora («bu kecha uxlamadim» — ya'ni o'tgan kecha), sifat o'rnida («bu odam — dah»), taajjub yoki istehzo ifodalash («Bu ham ish bo'ldimi?»). «Shu» olmoshi ham ko'p ma'nolilikka ega:

Shu edimi? — nafrat yoki norozilik.

Shu yer, aynan shu. — makonga aniq ishora.

Shu bilan tamom. — vaqt yoki jarayonning yakunlanishi.

«O'sha» olmoshi esa xotira va o'tmish bilan bog'liq kontekstlarda alohida ma'no qatlamiga ega bo'ladi:

O'sha kunlarni eslaymanmi? — o'tgan vaqt, nostalji.

O'sha odam — qasddan aniq shaxsni ko'rsatmaslik, ko'rinmas qilish.

Cyberleninka da nashr etilgan qiyosiy maqolada [5] ta'kidlanganidek, ko'rsatish olmoshlari o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida turlicha grammatik moslashuv xususiyatiga ega; ammo semantik jihatdan ularning ko'p ma'noliligi universaldir. O'zbek tilidagi ko'rsatish olmoshlarining otga moslashmasligi, balki bitishuv yo'li bilan birikishi [5] ularning yanada erkin kontekstual o'zgaruvchanlikka ega bo'lishiga imkon beradi.

So'roq olmoshlari — «kim», «nima», «qaysi», «necha» — nutq vaziyatiga qarab to'rt xil ma'noda kelishi mumkin: haqiqiy so'roq, ritorik so'roq, emotsional ifoda va nisbiy bog'lovchi. Masalan:

Kim bu yog'ga kelardi? — haqiqiy so'roq.

Kim bilsin, taqdir nima deydi. — nisbiy ma'no (kim = «hech kim yoki har kim»).

Kim deydi? Kim qiladi? — ritorik so'roq, inkor ma'nosi.

Kim ekan bu! — ajablanish, hayrat.

Gumon olmoshlarining semantik jihatdan o'ziga xos xususiyati shundaki, ular «noaniqlik» semasi asosida qurilgan. «Kimdir», «biror», «allakimdir» olmoshlari noaniq, mavhum shaxsni ifodalaydi. Biroq kontekst ularning ma'nosini o'zgartiradi: «kimdir» ba'zan aniq shaxsga ishora qilish uchun, o'sha shaxsni aytmaslik maqsadida ataylab ishlatiladi. Scribd kutubxonasidagi o'quv materialida [8] ta'kidlanganidek, «birov so'zi ham kimdir, allakim so'zlariga sinonim bo'lgani uchun gumon olmoshi hisoblanadi» va u «har kim, hech kim, bitta» degan so'zlarga ham sinonim bo'lishi mumkin — bu esa polisemiyaning leksik sinonimiya bilan qanday kesishishini ko'rsatadi.

«Siz» olmoshining o'zbek tilida ikki asosiy ma'nosi bor: ko'plik (ikkinchi shaxs ko'plik) va hurmat (bir kishi, ammo hurmat ko'rsatish uchun ko'plikda murojaat). Bu ikki ma'noning mavjudligi o'zbek tilining ijtimoiy-madaniy konteksti bilan uzviy bog'liq. Biroq kontekstual ma'nolar bundan ham keng. Rasmiy munosabatlar kontekstida begona kishiga «siz» — bu oddiy muloyimlik. Oila ichida «siz» — bu ota-onaga nisbatan alohida hurmat. Tahdid yoki keskin tanqid kontekstida «siz» — bu masofani kuchaytirish: «Sen emas, aynan Siz».

Siz haqida eshitganim bor. — hurmat bilan, lekin xavf belgisi bilan.

Shu bilan birga, «sen» olmoshining stilistik qo'llanilishi ham ko'p ma'nolilikka misoldir. Manbaalarda ta'kidlanganidek, «o'zbek tilida sen olmoshi stilistik maqsadda -lar affiksi bilan qo'llanishi ham mumkin. Bunday paytda, asosan, mensimaslik, istehzo ma'nolarini anglatadi». Ya'ni «senlar» — bu ko'plik emas, balki kamsitish ma'nosi.[5]

Xulosa.

O'zbek tilidagi olmoshlarning ko'p ma'noliligi — bu leksik polisemiya tubdan farqlanuvchi, lekin unga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etgan semantik hodisadir. Oddiy so'zda polisemiya so'zning o'zi ichida, uning lug'aviy tuzilishida yashaydi; olmoshda esa u kontekst, nutq vaziyati va muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatiga bog'liq holda tug'iladi. Shu sababdan olmosh polisemiyasini o'rganish uchun leksik semantika bilan birga pragmatika va kognitiv tilshunoslik usullaridan foydalanish zarur. Tahlil ko'rsatdiki: «men» olmoshi besh xil kontekstual ma'noda, «u» olmoshi to'rt xil ma'noda, ko'rsatish olmoshlari turli makro va mikro ma'nolarda qo'llanishi mumkin; so'roq olmoshlari ritorik, emotsional va nisbiy ma'nolarga ega bo'lsa, «siz» va «sen» olmoshlari ijtimoiy masofani boshqarish vositasi sifatida o'ziga xos semalar kasb etadi. Bu hodisalar olmoshning grammatik kategoriya ekanligini emas, balki uning semantik jihatdan faol, dinamik va nutq vaziyatiga his sezgir bir til birligi ekanini isbotlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlarda olmosh polisemiyasini badiiy matn korpusi asosida sistemali inventarizatsiya qilish — bu sohada muhim ilmiy hissa bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Sharipova D.M. va boshq. Olmoshlarning lingvistik tahlillarini yuzaga chiqaruvchi vositalar // Zenodo. — 2022. DOI: 10.5281/zenodo.6777030. URL: <https://zenodo.org/records/6777030>
2. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek tili. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Jamolxonov H.N. Hozirgi o'zbek adabiy tili: oliy o'quv yurtlari uchun darslik. — Toshkent: Talqin, 2005.

4. Erkaboyeva N. va boshq. Cho'lponning «Mehrobdan Chayon» romani misolida kishilik va ko'rsatish olmoshlarining morfologik belgi-xususiyatlari // International Journal of Scientific Researchers. — 2024. — Vol. 6, №1. URL: <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/4180>
5. Xudayarova M. O'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida olmosh so'z turkumi // Cyberleninka. — 2024. DOI: 10.5281/zenodo.10784396. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-rus-va-qoraqalpoq-tillarida-olmosh-so-z-turkumi>
6. Apresyan Yu.D. Leksicheskaya semantika: sinonimicheskiye sredstva yazyka. — Moskva: Nauka, 1974. (Academicsbook.com da iqtibos qilingan [7]).
7. Leksik-semantik o'ziga xoslikning tahlili // Academicsbook.com. — 2025. URL: <https://academicsbook.com/index.php/fts/article/view/3135>
8. Ona tili va adabiyot: o'quv materiallar to'plami // Scribd. URL: <https://www.scribd.com/document/620073484/Fd4dc8581ebf6cdde26047e3853502e5-ONA-TILI-Va-ADABIYOT>
9. Mahmudov N.M., Nurmonov A.H. va boshq. Ona tili: 9-sinf darsligi. — Toshkent: O'qituvchi, 2023.
10. Lutfullayeva D., Saparniyozova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2018.
11. Cruse A.D. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. — Oxford University Press, 2011.
12. Nurmonov A.H. O'zbek tilshunosligining nazariy masalalari. — Toshkent: Fan, 2012.
13. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. — Jizzax: Sangzor, 2006.
14. Ashurova D.U., Safarov Sh.S. Matn lingvistikasi. — Toshkent: O'quv-uslubiy markaz, 2012.
15. Inlibrary.uz — O'zbekiston ilmiy maqolalar elektron kutubxonasi. Tilshunoslik bo'yicha tadqiqotlar. URL: <https://inlibrary.uz>
16. Isanova, Feruza (2021) ФАКТОР НАЦИОНАЛЬНОГО ЯЗЫКА В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. Материалы республиканской научно-практической конференции «СТРАНОВЕДЕНИЕ: ЯЗЫК, ИСТОРИЯ И КУЛЬТУРА». pp. 34-38. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2086>.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.